

ADABIY MANBANI O'RGANISHNING MUHIM NAZARIY VA AMALIY TAMOIYILLARI

Gulandom Tog'ayeva,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,

OrcID: <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-0215-147>

Annotatsiya: Yangi o'zbek she'riyatidagi diniy-ma'rifiy mavzular tadrijini o'rganishda XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning murakkabligini hisobga olish lozim. Negaki, ayni shu davrda Turkiston hayotida o'tkir siyosiy-ijtimoiy voqealar ko'lami kengaydi, xalq chor Rossiyasi bosqini azoblari iskanjasida qoldi. Ushbu maqolada ayni shu masalalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: din, hurfikrlilik, diniy bag'rikenglik, yangi zamon she'riyati, iymon va maslak tafakkuri, adabiy meros.

ВАЖНЫЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ИСТОЧНИКА

Гуландом Тогаева,

доцент Чирчикского государственного педагогического университета

OrcID: <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-0215-147>

Аннотация: При изучении развития религиозно-просветительской тематики в новой узбекской поэзии необходимо учитывать сложность общественно-политических процессов начала XX века. В это время масштаб острых политических и социальных событий в жизни Туркестана расширился, а народ был измучен гнётом царской России. Данная статья посвящена этим вопросам.

Ключевые слова: религия, свободомыслие, религиозная толерантность, современная поэзия, вера и профессиональное мышление, литературное наследие.

IMPORTANT THEORETICAL AND PRACTICAL PRINCIPLES FOR STUDYING A LITERARY SOURCE

Gulandom Togaeva,

Associate Professor of the Chirchik State Pedagogical University

OrcID: <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-0215-147>

Abstract: When studying the development of religious and educational themes in new Uzbek poetry, it is necessary to take into account the complexity of the socio-political processes of the early 20th century. At that time, the scale of acute political and social events in the life of Turkestan expanded, and the people were exhausted by the oppression of Tsarist Russia. This article is devoted to these issues.

Key words: religion, freethinking, religious tolerance, contemporary poetry, faith and professional thinking, literary heritage.

“Yangilik” va “eskilik” o‘rtasidagi azaliy kurash hamisha uchinchi bir yangilikka sabab bo‘lgan. Bu o‘zbek adabiyotida ham o‘z aksini topdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Har bir yangi asar, u qanday shaklda yoki uslubda bo‘lmasin, o‘zida ma‘lum ma’noda iymon va maslak diasporasini tashiydi. Har bir asar g‘oyasining markazida iymon va maslak tafakkuri yashiringan bo‘ladi. Binobarin, XX asr boshiga kelib, Turkiston xalqlari hayotida ma‘rifatparvarlik ruhi kuchaydi va bu fan, adabiyot, san’atda o‘z tajassumini topdi. Bunda albatta iymon va maslak tafakkuri ham rol o‘ynadi. Chunki har bir ijodkor avvalo, o‘zi tug‘ilib o‘sgan zamin, tarbiya topgan muhit farzandidir. U o‘zi kamol topgan el-yurtning asrdan-asrga o‘tib kelayotgan qadriyatlarini e‘zozlaydi.

Din ham ana shu qadriyatlar jumlasiga kiradi. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganidek, ”Din azal-azaldan inson ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit shaklidir. Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarmiz, urf-odat va an’alarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oqibatni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr – shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar aynan shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi”[1, 36.].

Demakki, diniy-ma’rifiy tafakkur ma’naviy yoki adabiy hodisaning tub o‘zagida namoyon bo‘ladi.

Din inson ongini oldindan belgilangan maqsad tomonga yo‘naltira oladi. U o‘zining ahkomlaridagi bosh va asosiy g‘oyalarni qudratli mafkuraviy vositalar orqali individlarning imoniga aylantirish sotsial mexanizmini shakllantirgan. Bu

ta'sirchan mexanizm dunyoviy tafakkur, ziyobaxsh taraqqiyparvar dunyoqarash bilan uyg'unlikda o'zining badiiy tamoyillarini namoyon etadi.

Har bir asar g'oyasida dinning quyidagi funksiyalaridan biri ishtirok etadi:

1. To'ldiruvchilik, tasalli beruvchilik(kompensatorlik);
2. Birlashtiruvchilik (integratorlik);
3. Nazorat qilish, tartibga soluvchilik(regulyatorlik);
4. Aloqa bog'lovchilik;
5. Legetimlashtiruvchilik(tarbiyalovchilik).

To'ldiruvchilik, taskin beruvchilik va tarbiyaviylik funksiyalari ularning ichida eng faollari sanaladi va adabiy san'at asarlari zaminini kamolga yetkazadi.

Filologiya fanlari doktori N.Shodmonov aytishicha, har bir adabiy manbani o'rganishda quyidagi beshta tamoyilga suyanish maqsadga muvofiqdir:

1. Asarning madaniy siyosatga muvofiqligi va dunyoviylik xarakteri.
2. Asarning adabiy merosga munosabatni belgilovchi mezonlarga muvofiqligi.

Asarning adabiy merosga bo'lgan munosabatni belgilovchi mezonlarga(ular:a)vatanparvarlik;

;b)xalqchillik;

v)insonparvarlik;

g)taraqqiyparvarlik ;

d)badiiy mukammallik) muvofiqligi;

3. Asarning adabiy manba sifatidagi darajasi va muallif ijodini kompleks o'rganishdagi o'rni.

4. Asarning umuminsoniy va milliy ma'rifiy-axloqiy xarakterga egalik darajasi.

5. Manbaning ilmiy tadqiqotlar taraqqiyotiga xizmat qilish darajasi[2.13-24.].

Ushbu tamoyillarning ilmiy-metodologik manbalarga tayangan holda ish yuritish va mavzuni ochib berishdagi ahamiyati beqiyos. Lekin dissertatsiyamiz o'z oldiga qo'ygan mavzu ko'lami kengligi va o'ziga xosligi hamda o'tgan asrdagi murakkab siyosiy-ijtimoiy vaziyat murakkabligini hisobga olganda quyidagi ilmiy-metodologik tamoyillarni ham uyg'unlashtirish zarur bo'ladi:

1. Ijodkorlar tafakkuridagi dunyoviy va umuminsoniy fazilatlar dialektikasining badiiy talqinini o'rganish.

2. O'rganilayotgan adabiy asarlarning mumtoz adabiy an'analarga munosabatini tadqiq etish.

3. Shoirilar ijodiyotining milliy istiqlol g'oyasiga muvofiqligini o'rganish.

4. Mavjud siyosiy tuzum tufayli "g'oyaviy tahrir"ga uchragan adabiy asarlar semiotikasi va badiiy etimologiyasiga baho berish.

5. O'rganilayotgan asarlarning g'oyaviy-ma'rifiy, axloqiy-estetik jihatlari bilan umuminsoniy tendensiyalarga mos kelishi va u adabiy merosga munosabatni belgilovchi mezonlarga egaligi.

6. O'rganilayotgan adabiy asarlar haqidagi matbuotdagi chiqishlarning ilmiy-publitsistik mezonlarga muvofiqligi va badiiy ta'sirchanligini tadqiq etish.

7. Tadqiq etilayotgan asarlarda hurfikrlilik, diniy bag'rikenglik tamoyillariga sodiqlik darajasini tadqiq etish.

8. Ijodkorlarning ijtimoiy pozitsiyasi va dunyoqarashi tahlilida an'anaviylik hamda zamonaviylik talqini.

Islom dinini siyosiy lashtirishga dahldor kuchlar-siyosiy partiyalar, aqidaparastlar, fundamentalistlar, diniy harakatlarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy sabablarini tadqiq etishning o'zbek adabiyoti oldidagi vazifalarini ta'kidlash;

10. Jahon hamjamiyatida, shu jumladan, O'zbekistonda fuqaro va jamiyat o'rtasida turli g'ayriinsoniy munosabatlarni keltirib chiqarishga va bu yo'lda islom dinini bayroq qilib olib, g'arazli niyatlarini amalga oshirishga urinayotgan siyosiy kuchlar va diniy harakatlar mohiyatini fosh etishda o'zbek adabiyoti va matbuotining o'rni muhimligini ko'rsatish;

11. Ayni paytda global muammolar ichida jahon dinlari ta'limotidagi inson tafakkuri va jamiyat munosabatlarini tahlil qilish, qiyoslash asnosida xalqlar, millatlar hamda davlatlar o'rtasida tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi

tavsiyalarni ishlab chiqishning muhimligi, bu borada adabiyot va matbuotning hissassi beqiyosligini ta’kidlash.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq birinchi Prezidentimiz mamlakat taqdirini belgilashda ma’naviy-ma’rifiy soha rivojini birlamchi o’ringa qo’ydi va barkamol avlodni tarbiyalash to’g’risidagi konsepsiya va yo’l-yo’riqlarni ishlab chiqdi. Shu bilar birga mafkuraviy bo’shliqqa barham berish, diniy ekstremistik kuchlarga qarshi kurashish, globallashuv sharoitida har bir fuqaroni, xususan, yoshlarni “ommaviy madaniyat” xurujidan saqlash chora-tadbirlari ko’rildiki, bu ezgu ishlar o’zbek adabiyoti va matbuotida ham bunday asos, ilmiy metodologik tamoyillarni ishlab chiqishning zamini vazifasini o’taydi.

Ijodkorning ijtimoiy pozitsiyasi va dunyoqarashini o’rganishda u yashagan muhit va madaniyat bunyodkori bo’lgan xalqning qalb ehtiyojlari ham muhim rol o’ynaydi [3, 174].

Bu sohada muayyan metodologik dasturilamallar va boshqa ilmiy-falsafiy, nazariy hamda uslubiy bilimlarga tayanish lozim bo’ladi.

Globallashib borayotgan dunyoda ramziy bosim va ularning natijasi o’laroq maydonga keladigan ziddiyatlar asosan, din, mafkura, ta’lim va “ommaviy madaniyat” doirasida kechishini qayd etmoq lozim. Muayyan kuchlar tomonidan “ommaviy madaniyat” orqali qadriyatlar tizimini o’zgartirishga urinilmoqda. U.Saidov ta’kidicha, “ommaviy madaniyat” jamiyatda “ildizsiz individ”larni shakllantirishga xizmat qiladi, natijada, jamiyat anomaliya holatiga tushadi(ya’ni tartib-qoida va qadriyatlarni yo’qotish) [4, 17.].

Milliy madaniyat esa insonga shaxs martabasini beradi, ma’naviyat, tarixiy xotirani yuksaltiradi, hayotni tartibga soluvchi va faoliyatni yo’naltiruvchi qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Ingliz sotsiologi Z.Bauman ta’kidlaydiki, “milliy madaniyatdan xoli, “individuallashgan” jamiyatda uch xususiyat paydo bo’ladi: Inson tomonidan ijtimoiy jarayonlar ustidan nazoratning yo’qolishi; Kishining jamiyatdagi o’zgarishlar qarshisidagi ularni nazorat qilish hissi yo’qligi va o’zi yashashi kerak bo’lgan mavhum, noaniq voqelik qarshisidagi himoyasizligi; bularning oqibati o’laroq inson

o‘zining uzoq muddatli maqsadlarini, hayotiy strategiyalarini rejalashtirib, ro‘yobga chiqara olmaganligi tufayli, ular unchalik salmoqqa ega bo‘lmasa-da, darhol qo‘lga kiritiladigan natijalarga almashtirilishi”.

Ma’naviy-ruhiy tanazzul ildizlariga naazar tashlaganda ana shunday shaxs fojealari vujudga keladi. Shu bois yoshlarimizni turli ma’naviy tahdidlardan, hashamdor pop-psixologiyalardan, buzg‘unchi g‘oya va mafkuralardan himoya qilish, o‘zligimizni asrash, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, bu borada adabiy-estetik tafakkur tadriji mezonlarini keng o‘rganish, shu asnoda milliy mafkura, milliy madaniyat, umuminsoniylik fazilatlarini o‘zida jamlagan adabiy asarlarning badiiy ta’sirchan qirralarini tadqiq etish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Shu ma’noda Prezidentimiz ham “Agar odamning baxti nimada, deb so‘ralsa, men kimki ichki dunyosi, boshqacha aytganda, imon-e’tiqodi amriga bo‘ysunib yashasa, shundan rozilik, qanoat tuysa, shubhasiz, ana shunday inson baxtlidir, deb javob bergan bo‘lardim, ”deb o‘rinli ta’kidlagan edi[5, 23.].

Olim N.Shodmonov aytishicha, “har bir manbani tadqiq etishda O‘zbekistonning milliy mafkurasiga xizmat qilishi bilan bog‘liq bir qator shartlar e’tiborga olinishi zarur. Bu shartlar, bizning fikrimizcha, quyidagilardan iborat:

- xalqning azaldan ardoqlab kelingan qadriyatlari ulug‘lanishi, ularga asoslanilishi;
- aholining milliy-tarixiy tafakkuri va turmush tarzidan kelib chiqilishi;
- hurfikrlilik, diniy bag‘rikenglikka munosabatning to‘g‘riligi;
- ma’naviyat va axloqiylik tamoyillariga amal qilinishi;
- ma’rifiy taraqqiyotga, yangi fikrlar tug‘ilishiga, yangi jamiyat qurilishiga xizmat qilishi;
- badiiy saviyaning yuksaklik darajasi;
- keltirilgan ma’lumotlarning asosli va haqqoniy ekanligi;
- muallif ijtimoiy pozitsiyasida biryozlamalikka yo‘l qo‘yilmaganligi;
- urush, zo‘ravonlik, bosqinchilik; diniy, irqiy, sinfiy va tabaqaviy kamsitish kabi illatlarga yon berilmasligi [6, 15].

Mustabid tuzum mafkurasi sinfiylik va partiyaviylik mezonlari asosidagi adabiyotni talab qilgan sharoitda ham ezgu g'oyalar tarannumi orqali o'z so'zini ayta olgan ijodkorning faoliyatini o'ziga xos jasorat deyish mumkin.

Adabiy asarlar hamma zamonlarda insoniyat tafakkurining mahsuli, jamiyatdagi mavjud axloqiy tarbiyaning mehvari sifatida kamol topgan. Shu bilan birga u o'sha davr voqeligining ma'lum ma'nodagi badiiy ifodasi hamdir. Adabiyot-bu umuminsoniy madaniyatning kishilar hayotini tartibga soluvchi va faoliyatini ezgulikka yo'naltiruvchi faol qadriyatlar tizimidir [7, 342].

Ayni shu ma'noda XX asr boshlarida yangi o'zbek adabiyoti shakllanishining o'z ijtimoiy-siyosiy va adabiy sabablari bor. Albatta masalaning bu jihatlari B.Qosimov, O.Sharafiddinov, Sh.Yusupov, N.Karimov, U.Dolimov, S.Ahmedov, N.Abduazizova, D.Alimova, N.Jabborov, R.Tojiboyev, H.Boltaboyev, B.Karimov, Q.Jo'rayev, B.Do'stqorayev, Sh.Rizayev, U.Jo'raqulov, R.Xolmatov, R.Tojiboyev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ma'lumki, chor Rossiyasi tomonidan Turkiston hududining bosib olinishi aholi mustamlakachilik zulmi ostida ezilishiga sabab bo'ldi.

Imperator Nikolay II 1905 yil 17 oktabrda Manifest e'lon qildi. Unga ko'ra, Rossiyada so'z erkinligi ta'minlanishi ma'lum qilingan edi. Albatta bu hodisa barcha o'lkalar qatori Turkistonda matbuot va kitobat ishlari ancha jonlanib ketishiga sabab bo'ldi. Natijada kitob va gazeta chop etuvchi ishbilarmonlar soni ko'paydi [8, 367].

Toshkentda Ilin, Yakovlev, Orifjonov, Namanganda Ibrat, Samarqandda Sliyanov, Gazarov, Qo'qonda Shumakov, Vaynerlarga qarashli matbaaxonalarda bosma ishlari rivojlandi. Shuning barobarida gazetachilik ishi ham avj olib yuqori o'ringa chiqdi. 1906-1913 yillarida yurtimizda "Turon", "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Samarqand" kabi gazetalar chop qilindi. Zero, matbuot-katta fikr maydoni, u o'zaro fikr almashish, dunyo, fan, adabiyot, san'at borasidagi erishilgan bilimlarni jamlash jamiyatni isloh etuvchi g'oyalarni keng namoyon etishga imkon beruvchi ko'zgudir. Bu ko'zgu qanchalar ravshan, yorug' bo'lsa, fikr va aql ham shuncha peshlanadi.

G'oya g'oyaga sabab bo'ladi, uni rivojlantiradi, aql aqlni topadi. YA'ni matbuotning ijtimoiy institutlik vazifasi bu yerda keng ahamiyat kasb etadi. Yangi shakllanib kelayotgan o'zbek adabiyotida yangi janrlar kirib kelishida, ijtimoiy voqelikdagi millatni qiynab kelayotgan muammo va hodisalarni adabiy olamga, badiiy obrazlar silsilasiga kiritish borasida jadid ijodkorlarining o'rni katta bo'ldi. Endi paydo bo'lgan yangi adabiyot mavzu ko'lamlari jihatidan butunlay o'ziga xos va hayotiy edi, u xalq ruhiga yaqin va uning dardini ifoda qilish vositalarini badiiy asarlar ruhiga singdirib yubora olgan edi. Masalan, vaqtli matbuotning faollashuvi, unda paydo bo'lgan milliy o'zlikni anglash tuyg'usining kuchliligi, dramaturgiyaning shakllanishi, she'riyatda barmoq vaznining ustivor hodisaga aylanishi, yangi timsol va keng bilimli qahramonlarning badiiyati-bular hammasi yangi o'zbek adabiyoti yuksak pallaga kirayotganidan dalolat edi [9, 267].

Ayni ana shu dolg'ali kezlarda yangi adabiyot, yangi adabiy yo'nalish va turfa janrlar ehtiyoji pishib yetildi. Demakki, Sharq va G'arb madaniyatining o'ziga xosligi, yangilanish ehtiyoji, o'zaro uyg'unlashuv zaruratini taqozo qildi. Bu zarurat cho'g'lanib ma'naviy ziyoga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. -Т.: Маънавият, 2008. -Б.36.
2. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий наср тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Фил.ф.д.... илий даражаси учун ёзилган диссертация. -Т., 2009, -Б.13-24.
3. Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. – Т.: Маънавият, 1999. – Б. 174.
4. Саидов У. Оммавий маданият: мафкуравий тазйиқлар, раҳбар масъулияти //Жамият ва бошқарув. махсус сон, 2010. -Б.17.
- 5.Каримов. И. Ирода ва имон-эътиқодимиз синовии. - Т.: Ўзбекистон, 1999.- Б.23.

6. Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-икбол”нинг ўзбек бадиий-тарихий наср тараққиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи. Фил.ф.д.... илий даражаси учун ёзилган диссертация.-Т.,2009,-Б.15.

7. https://uza.uz/uz/posts/tasavvufga-oid-adabiy-falsafiy-qarashlarning-matbuotda-aks-ettirilishi_476328

8. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=t2sMc9QAAAAJ&citation_for_view=t2sMc9QAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

9. <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/632/548>

10. Ikramov F.A. Mustaqil ta’lim faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta’limini tashkil etishning pedagogik omillari // FarDU. Ilmiy xabarlar jurnali. – 2023. – №6. – B. 191-194. (13.00.00, №35).

11. Ikramov F.A. Mustaqil ta’lim faoliyati asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik tamoyillari // NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – 2024. – №5. – B. 750-755.

12. Ikramov F.A. Mustaqil ta’lim faoliyati asosida ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi // NamDU Ilmiy Axborotnomasi. – 2024. – №11. – B.382-386.

13. Ikramov F.A. Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlarining ahamiyati // “Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar”, - №2, - 2025. -B.69–72.